

## ASAD DILMURODNING «MAHMUD TOROBIY» ROMANIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO‘QIMA

**Raximova Navro‘za Hayotjon qizi,**

*Farg‘ona davlat universiteti Adabiyotshunoslik(o‘zbek adabiyoti) yo‘nalishi 2-kurs magistri*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Asad Dilmurodning «Mahmud Torobiy» romanida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning o‘zaro munosabati tahlil qilinadi. Asarda tarixiy manbalarga tayangan holda yaratilgan voqealar, tarixiy shaxslar obrazi hamda yozuvchi fantaziyasi mahsuli bo‘lgan badiiy unsurlar o‘rganiladi. Roman misolida tarixiylik va badiiylik uyg‘unligi qahramon xarakterini yaratishdagi ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** tarixiy roman, Mahmud Torobiy, tarixiy haqiqat, badiiy to‘qima, xarakter, tarixiy obraz, badiiy talqin.

**Аннотация.** В статье анализируется соотношение исторической правды и художественного вымысла в романе Асада Дильмурода «Махмуд Тараби». Исследуются исторические события и образы, основанные на достоверных источниках, а также художественные элементы, созданные авторским воображением. На примере романа раскрывается значение единства историзма и художественности в создании характера героя.

**Ключевые слова:** исторический роман, Махмуд Тараби, историческая правда, художественный вымысел, характер, исторический образ, художественная интерпретация.

**Abstract.** This article examines the relationship between historical truth and artistic fiction in Asad Dilmurod's novel "Mahmud Torobiy". The study analyzes historical events and characters based on reliable sources as well as fictional elements created by the author's imagination. The novel demonstrates the importance of the harmony between historicity and artistic interpretation in the creation of literary characters.

**Keywords:** historical novel, Mahmud Torobiy, historical truth, artistic fiction, character, historical image, artistic interpretation.

**Kirish.** Har qanday tarixiy asarda bo‘lgani kabi, ushbu romanda ham badiiy to‘qima muhim rol o‘ynaydi. Chunki tarixiy manbalar voqealarni qisqa va umumiy tarzda bayon qiladi, badiiy asar esa ularni kengaytiradi, jonlantiradi. Muallif tarixiy haqiqatni buzmaganda, uni badiiy shaklda ifodalashga intiladi. Bu esa romanning ishonchliligini ta‘minlaydi. Tarixiy faktlar asosida yaratilgan sahnalar o‘quvchida voqealarning haqqoniyligi haqida tasavvur uyg‘otadi. Boshqa tarixiy romanlarda bo‘lgani kabi «Mahmud Torobiy» romani ham fantaziyadan butkul holi emas. Tarixda bo‘lib o‘tgan kichik voqealar yoki arzimadetailar bu yerda muallif mahorati va tasavvur kuchi bilan katta bir bobga aylantirilgan. Tanqidchi Umarali Normatov taniqli yozuvchi Pirmqul Qodirov bilan bo‘lgan suhbatida aynan shu masalaga to‘xtalib o‘tgan. Tanqidchining «Umuman, romanda aniq hujjatar bilan fantaziya, tasavvur nisbati xususida nima der edingiz? Har holda oqibat-natijada, romanda tasavvurga, xayolga qaraganda, hujjatlarning salmog‘i ortiqroq ekani aniq.» [1.77] degan savoliga yozuvchi quyidagicha javob bergan: «Romandagi tarixiy hujjatlar bilan tasavvur, fantaziyaning nisbati mening zamonviy asarlarimdagi bugungi hayot va uning tasviri orasidagi nisbatdan uncha ko‘p farq qilmaydi. Faqat tashqaridan qaragandagina romanda yozuvchitasavvuri va

fantaziyasidan ko‘ra hujjatlarning o‘rni salmog‘i oshiqroq tuyuladi. Lekin aslida unday emas.”.[1.77]

**Adabiyotlar tahlili.** Tarixiy roman va unda tarixiy haqiqat hamda badiiy to‘qima munosabati adabiyotshunoslikda muhim o‘rganiladigan masalalardan biridir. G‘. Murodov tarixiy romanlarda hujjatlilik tamoyili voqealar ishonchliligini ta‘minlashini ta‘kidlaydi.[4] Bu yondashuv “Mahmud Torobiy” romanida ham asosiy o‘rin tutadi.

Alauddin Atomalik Juvayniyning “Tarixi jahongushoy” asari romandagi tarixiy voqealar va obrazlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.[2] Shu bilan birga, Umarali Normatov va Pirimqul Qodirov o‘rtasidagi ilmiy mulohazalar tarixiy romanda badiiy fantaziya va hujjatlilik uyg‘unligi zarurligini ko‘rsatadi.[1]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda tarixiy roman poetikasi, xususan, tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima munosabatini yoritishda tavsifiy-analitik, qiyosiy va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Tavsifiy-analitik metod orqali Asad Dilmurodning “Mahmud Torobiy” romanidagi tarixiy va badiiy qatlamlar alohida o‘rganildi. Qiyosiy metod esa asarda berilgan tarixiy ma‘lumotlarni ilmiy manbalar bilan solishtirish imkonini berdi.

Shuningdek, kontekstual tahlil metodi yordamida badiiy matndagi obrazlar, dialoglar va voqealarning tarixiy muhit bilan bog‘liqligi aniqlandi. Tadqiqot jarayonida tarixiylik va badiiylik uyg‘unligini ochib berish asosiy ilmiy yondashuv sifatida qabul qilindi.

**Tahlillar va natijalar.** Tarixiy manbalarga ko‘ra Torobiyning aniq tug‘ilgan yili, oilasi haqida ma‘lumotlar deyarli yo‘q. Faqatgina uning XIII asrda yashagani, Torob qishlog‘idagi oddiy g‘alvirsoz bo‘lgani haqida ma‘lumotlar uchraydi.[2] U boshchilik qilgan qo‘zg‘alon mog‘ullar istilosi davrida kuchaygan zulm, soliqlarning oshishi, mahalliy aholining og‘ir ijtimoiy ahvoli natijasida yuzaga kelgan. Torobiy qisqa vaqt ichida keng xalq ommasini o‘z atrofida birlashtirib zulmga qarshi kurash bayrog‘ini kotaradi. Tarixchi Juvayniy o‘zining “Tarixi jahongushoy” nomli asarida ushbu harakatning 1238-tilda bo‘lib o‘tganini, Torobiyning xalq orasida katta ta‘sir kuchiga ega bo‘lgani haqida yozadi. Uning yozishicha Torobiy ozini ilohiy qudratga ega ekanini aytib, oddiy xalqni o‘ziga ergashtira olgan.[2] Romanda yozilishicha, Torobiy maydonda yengish imkonsiz bo‘lgan. Unga zahar ham ta‘sir qilmagan. Bunga sabab esa yoshligida qoraqurt yutgani, uning zahridan kuchsizi Torobiyga ta‘sir qilmasligi yozilgan. “Kamina bolaligimda qoraqurt yutganmen. Charviga o‘rab!.. aning zahridan o‘tkirroq zahar bo‘lsagina kaminani yiqitishi mumkin, - ensasini qashib qo‘ydi darvesh Adoiy. – Rahmatli padarim qoraqurt yutishning xislati to‘g‘risida ko‘p alomat hikoyalar so‘ylardilar.”[3.120]

Mahmud Torobiy obrazining ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, qaror qabul qilish jarayonlari muallif tomonidan badiiy to‘qima asosida ochib beriladi. Bu jihatlar tarixiy manbalarda to‘liq aks etmagan bo‘lsa-da, romanda qahramon xarakterini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shuningdek, asarda uchraydigan ayrim obrazlar, dialoglar va voqealar ham muallif fantaziyasi mahsuli hisoblanadi. Bu badiiy vositalar voqealarning drammatizmini kuchaytiradi, obrazlarning jonliligini ta'minlaydi, o'quvchining qiziqishini oshiradi. Romanning badiiy qimmati aynan tarixiy haqiqat va badiiy to'qimaning uyg'unligida namoyon bo'ladi. Muallif tarixiy faktlarni asos sifatida olib, ularni badiiy tafakkur orqali boyitadi. Natijada Mahmud Torobiy obrazi nafaqat tarixiy shaxs sifatida, balki mukammal badiiy qahramon sifatida ham gavdalanadi. U jasur yetakchi, xalqparvar inson, ichki ziddiyatlarga ega murakkab shaxs sifatida tasvirlanadi.

Ayrim olimlar tarixiy asarlarda badiiy to'qimaga, fantaziyaga kengroq joy berish kerakligini aytishsa, ba'zilar tarixiy haqiqatdan chetlashishni keskin qoralashadi. Aslida tarixiy dalilni ham badiiy to'qimani ham asarda jo aylash kerak. Agar ikkisi ham to'g'ri maqsadda va me'yorda foydalanilsa, asardagi muvozanat buzilmaydi. Bu haqda adibning o'zi yozuvchi Tohir Malik bilan bo'lgan suhbatida gapirib o'tadi: "Ayni paytda, xoh tarixiy, xoh zamonaviy mavzuda bo'lsin, badiiy asar dalil-hodisa yig'indisi va jonsiz tafsilotidan iborat bo'lib qolmasligi kerak. To'plash va sharxlash fan ishi, so'z san'atkori fan allaqachon bajarib qo'ygan yumush bilan shug'ullanmaydi. San'atkor bayonchilik quliga aylanmaydi, saralangan hayotiy omillar ko'magida fantaziyaga erk beradi, sir-sinoatga to'la ruh iqlimining zich yopilgan eshigini ochish uchun mardona jang qiladi, shu yo'l bilan turli toifaga mansub kishilar qalbiga kirib boradi..."

Mahmud Torobiyga kelsak, uning obrazi kechmish qayg'usi, oh-fig'oni, qonli saboqlari, bugungi va ertangikun orzu-havaslar va kechinmalarining falsafiy sintezi tarzida tug'ildi. Tasavvurimda qad rostlagan Mahmud Torobiy faqat yetti yarim asr burungi isyonkor emas, ayni damda bugungi, ertangi kunning ham barkamol – orif, jasur va qaytmas odamidir. Mana shu xislatlari bilan u hamma davrlar uchun ibrat bo'la oladi, har qanday zotni ruhiy ta'sir kuchi doirasi – ohanraboli olamiga torta oladi."

Demak, Torobiyning aynan shu fazilatlarini uni barcha davrlar uchun ibratli siymo darajasiga olib chiqadi. Chunki u inson qalbiga ta'sir etish qudratiga ega – uning hayoti va kurashi har qanday insonni ruhiy uyg'onishga, o'zligini anglashga undaydi. Uning obrazi o'quvchini o'ylashga, o'z hayotiga nazar tashlashga, adolat va haqiqat kabi yuksak qadriyatlar haqida mushohada yuritishga chorlaydi. Shu tariqa Mahmud Torobiy obrazi – bu tarixiy shaxs timsolidagi badiiy umumlashma bo'lib, u o'tmish, bugun va kelajakni bog'lab turuvchi falsafiy ko'priq vazifasini bajaradi.

Adabiyotshunos G'. Murodovning fikriga ko'ra "Hujjatlilik — bu badiiy asarda real tarixiy faktlar, voqealar va manbalarga tayanish tamoyilidir. Ayniqsa, tarixiy romanlarda hujjatlilik asarning asosiy tayanch nuqtalaridan biri hisoblanadi. Chunki u tasvir etilayotgan davrning haqqoniyligini ta'minlaydi, voqealar rivojiga ishonchlilik bag'ishlaydi". [4.30-35] Biroq badiiy asarda faqat hujjat bilan cheklanib qolish yozuvchining ijodiy imkoniyatlarini toraytiradi. Shu sababli yozuvchi tarixiy faktlarni badiiy to'qima bilan boyitadi, obrazlarning ichki dunyosini ochadi, ularning ruhiy

kechinmalarini tasvirlaydi. Natijada tarixiy haqiqat va badiiy fantaziya uyg'unlashib, mukammal badiiy asar yuzaga keladi.

Bu jarayon ayniqsa xarakter yaratishda yaqqol namoyon bo'ladi. Tarixiy shaxs obrazini yaratishda yozuvchi mavjud tarixiy ma'lumotlarga tayangan holda uning ichki dunyosini, ruhiy holatini va individual xususiyatlarini badiiy yo'sinda to'ldiradi. Shu tariqa real shaxs badiiy obraz darajasiga ko'tariladi.

Tarixiy haqiqat romanning asosiy tayanchi bo'lsa, badiiy to'qima uning estetik qiymatini oshiradi. Shu bois asar nafaqat tarixiy bilim beradi, balki o'quvchiga kuchli badiiy ta'sir ko'rsatadi.

Romanda Mahmud Tarobiy shaxsiga oid quyidagi jihatlar tarixiy haqiqatga asoslanadi:

- U XIII asrda yashagan va mo'g'ullar istilosiga qarshi xalq qo'zg'oloniga boshchilik qilgan.

- Tarobiy xalq orasidan chiqqan, oddiy inson bo'lishiga qaramay, katta ta'sir kuchiga ega yetakchi sifatida tasvirlanadi.

- Uning faoliyati Mo'g'ullar istilosi davri bilan bog'liq holda beriladi.

- Xalqni ozodlikka chorlaganligi tarixiy manbalarda ham qayd etilgan

Romandagi badiiy to'qima esa qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy kurashlari keng tasvirlanadi (bu holatlar tarixiy manbalarda batafsil berilmagan).

Mahmud Torobiy shaxsiga oid tarixiy manbalarda uning oilasi, yaqin qarindoshlari haqida deyarli aniq ma'lumotlar uchramaydi. Bu esa yozuvchi uchun ma'lum darajada ijodiy erkinlik maydonini yaratadi. Asad Dilmurod aynan shu imkoniyatdan foydalanib, Torobiy obrazini yanada to'liq va jonli ko'rsatish maqsadida uning oila a'zolarini badiiy to'qima asosida asarga olib kiradi. Natijada tarixiy shaxsning faqat siyosiy yoki ijtimoiy faoliyati emas, balki uning insoniy qiyofasi, ichki dunyosi ham kengroq ochilishiga erishiladi.

Badiiy to'qima orqali kiritilgan oila a'zolari, xususan, singlisi yoki boshqa yaqinlari bilan bog'liq voqealar Torobiyning xarakterini chuqurlashtiradi. Agar u faqat tarixiy yetakchi sifatida tasvirlanganida, obraz biryoqlama bo'lib qolishi mumkin edi. Ammo oila doirasidagi munosabatlar orqali u mehribon aka, jonkuyar inson, iztirob chekadigan va o'zini aybdor his qila oladigan tirik shaxs sifatida gavdalanadi. Bu esa o'quvchining qahramonga nisbatan hissiy yaqinligini oshiradi. Shuningdek, bunday badiiy qo'shimchalar asarning ta'sirchanligini kuchaytiradi. Oila bilan bog'liq sahnalar orqali dramatism kuchayadi, voqealar yanada hayajonli va esda qolarli bo'lib boradi. Masalan, yaqin insonini yo'qotish bilan bog'liq epizodlar qahramonning ruhiy holatini chuqurroq ochib beradi va o'quvchida hamdardlik tuyg'usini uyg'otadi. Natijada Torobiy obrazi nafaqat aql bilan, balki qalb orqali ham idrok etiladi.

Ko'rinadiki, badiiy to'qima tarixiy haqiqatni inkor etmaydi, aksincha uni to'ldiradi. Yozuvchi mavjud tarixiy faktlarni saqlagan holda, ular orasidagi "bo'shliq"ni badiiy tafakkur bilan to'ldiradi. Bu esa asarning ilmiy asosdan uzilib ketmasdan, estetik jihatdan

boy va mukammal bo‘lishiga xizmat qiladi. Torobiy obrazining oila orqali boyitilishi uning ijtimoiy faoliyati bilan shaxsiy hayoti o‘rtasidagi uyg‘unlikni ko‘rsatadi. U tarixiy shaxsdan tashqari, o‘z his-tuyg‘ulari, mehr-muhabbati, iztiroblari bilan yashaydigan inson sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa kitobxonga nafaqat tarixiy voqealarni anglash, balki inson ruhiyatini chuqurroq his etish imkonini beradi. Demak, tarixiy manbalarda mavjud bo‘lmagan oilaviy tasvirlarning badiiy asarga kiritilishi salbiy emas, aksincha, ijobiy natijalarga olib keladi: obrazning to‘liqligi ta‘minlanadi, psixologik chuqurlik ortadi va asarning badiiy qiymati sezilarli darajada yuksaladi.

Ayrim ikkinchi darajali obrazlar (do‘stlar, dushmanlar, oddiy xalq vakillari) muallif tomonidan to‘qib yaratilgan. Hattoki tarixiy faktlarda qahramonning ota-onasining ismlari ham berilmagan. Dialoglar, nutqlar va sahnalar badiiy maqsadda qayta ishlangan. Romanda o‘lim sahnalari ham badiiy to‘qima orqali juda ta‘sirli chiqqan. Xususan, Tarobiyning farzandi Jaloliddin boshi yugurib ketayotgan holda chopilgani, uzilgan bosh esa otiqlar oyog‘i ostida koptokdek dumalab borgani, undan oqqan qon yerda qizil chiziq hosil qilgani har bir kitobxonni ayanchli ahvolga soladi. "...Orqaroqda yonoqlarini qaynoq yosh yuvgan Jaloliddin nafasi tiqulguncha pildirab chopadi, u mushfiq-mehribon bibisini ayovsizlarcha qopga tiqqanlaridan dahshatga tushgan. Lekin u umid bilan chopadi, hozir shafqatsiz suvoriy yo‘lini to‘saman, daryoga yaqinlashib qolgan uchqur otni to‘xtataman, deb o‘ylaydi. Ammo... ho‘ngillab chopqilayotgan bolakay borniga qilich urdi. Bolakayning sapchadek uzilgan boshi, hey, darig‘, biram ayanchli dumaladiki taqirda qip-qizil chiziq tortgan..."[3.100]

Romandagi jang sahnalari ham to‘liq tarixiy aniqlik bilan cheklanib qolmagan, balki muallif tomonidan sezilarli darajada badiiy to‘qima bilan boyitilgan. Asarda janglar nihoyatda shiddatli, keskin va dramatik ruhda tasvirlanadi. Qurbonlar sonining ko‘pligi, maydondagi halokat ko‘lami, o‘liklar tasvirining batafsil va ba‘zan keskin ifodalanishi voqealarning ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Bu orqali yozuvchi o‘quvchini voqealar ichiga olib kirishga, jang dahshatini yanada chuqurroq his qildirishga intiladi. Ayniqsa, jang sahnalarida berilgan portret tasvirlari, yaradorlar va halok bo‘lganlarning holati, qonli manzaralarning keng ifodalanishi realizmni kuchaytirgandek tuyuladi. Biroq ayni paytda bu tasvirlarda badiiy mubolag‘a unsurlari ham sezilib turadi. Chunki tarixiy manbalarda janglarning bunday darajada tafsilotli va keskin dramatik tarzda tasvirlangani kam uchraydi. "...Chindan Gura hech bir ovozni eshitmasdi, lekin tarvuz kabi dumalab yotgan boshlarni, ilinj va daxshat akslangan ko‘zlarni, momataloq basharalarni ko‘rardi, yana cho‘rt kesilgan, bemajolgina qimirlab-qimirlab qo‘yayotgan oyoqlarni, qo‘llarni ko‘rardi, bir-biriga mingashgan jasadlarni ko‘rardi...[3.277] Demak, yozuvchi bu yerda tarixiy haqiqatdan ko‘ra badiiy ta‘sir kuchini ustun qo‘yadi. Shuningdek, Tarobiyning harbiy yurishlari ham ayrim o‘rinlarda badiiy kengaytirilgan holda beriladi. Uning Chig‘atoy xon qarorgohiga qadar yetib borgani haqidagi tasvirlar qahramonning jasorati va yetakchilik salohiyatini yuksak darajada

ko'rsatish maqsadida berilgan. Bu holat tarixiy fakt sifatida aniq tasdiqlanmagan bo'lsa-da, badiiy asarda qahramon obrazini ulug'lash, uning kurash ko'lamini kengroq ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Bunday badiiy yondashuv natijasida jang sahnalari oddiy tarixiy bayon emas, balki kuchli emotsional ta'sirga ega badiiy epizodlarga aylanadi. Kitobxon nafaqat voqeani biladi, balki uni his qiladi, uning ichida yashayotgandek taassurot oladi. Shu bilan birga, Tarobiyning jasorati, qo'rqmasligi va dushman qarorgohigacha yetib borishga bo'lgan intilishi uning xarakterini yanada yuksak darajada ochib beradi. Umuman olganda, romandagi jang sahnalarining badiiy to'qima bilan boyitilishi ikki tomonlama natija beradi. Bir tomondan, asarning drammatizmi va ta'sirchanligi oshadi, qahramon obrazi ulug'lanadi. Ikkinchi tomondan esa, ayrim o'rinlarda tarixiy haqiqat bilan badiiy tasvir o'rtasida farq yuzaga keladi. Ammo badiiy asar mohiyatidan kelib chiqib qaraganda, bu usul yozuvchining ijodiy maqsadiga xizmat qiladi va asarning umumiy badiiy qimmatini oshirishga yordam beradi.

Mahmud Tarobiy obrazining yakuniy taqdiri ham romanda badiiy talqin asosida yanada chuqurlashtirib berilgan. Tarixiy manbalarda uning halok bo'lishi jang jarayonlari bilan bog'liq holda umumiy tarzda qayd etilsa-da, yozuvchi bu voqeani oddiy bayon darajasida qoldirmay, kuchli drammatizm va psixologik keskinlik bilan boyitadi. Ayniqsa, Olovxon Yusufning xiyonati orqali Tarobiy hayotining eng og'riqli lahzalari ochib beriladi. Asarda Tarobiyning jang maydonida yaralanishi yoki halok bo'lishidan ko'ra, unga yaqin insonning xiyonati kuchliroq ruhiy zarba sifatida tasvirlanadi. Bu xiyonat qahramonni jismoniy emas, balki ma'naviy jihatdan ham iztirobga soladi. U o'z umrini xalq, adolat va e'tiqod yo'lida bag'ishlagan bo'lsa-da, eng ishonchli deb bilgan insonidan zarba olishi uning qalbida chuqur alam uyg'otadi. Shu jihatdan qaraganda, Tarobiy uchun eng og'ir sinov jang emas, balki ishonchning poymol etilishidir. Olovxon Yusufning xatti-harakati orqali yozuvchi insoniy munosabatlarning murakkabligini ochib beradi. Tarobiy uchun bu xiyonat kutilmagan zarba bo'lib, u o'zini ichki iztirob girdobida qolganini his qiladi. Bu holat qahramonning ruhiy dunyosini yanada chuqurlashtiradi, uni oddiy qahramondan murakkab ichki kechinmalarga ega inson darajasiga olib chiqadi. Shu bilan birga, Tarobiy o'z taqdirini qabul qilgan holda, o'limni ulug' kun sifatida qarshi olishini bildiradi. U uchun bu nafaqat hayotning yakuni, balki ma'naviy yo'lning mantiqiy davomidir. Tarobiy jangda halok bo'lishni sharaf deb biladi, chunki bu uning e'tiqodi va kurashi bilan uyg'un holda kechadi. Bu jihat qahramonning ruhiy mustahkamligini, qat'iyatini va o'z yo'lga sodiqligini yana bir bor namoyon etadi.

Qahramonning so'nggi so'zlari — "Yomon achchiq bo'larkan o'zingniki!" [3.285] — esa butun asar davomida shakllangan ichki kechinmalarning yakuniy ifodasi sifatida yangraydi. Bu jumlada uning boshidan kechirgan iztiroblari, ayniqsa, yaqin insonning xiyonati tufayli yuzaga kelgan alam mujassam. Tarobiy uchun dushman zarbasi emas, balki o'zidan chiqqan xiyonat eng og'riqli jarohat ekanini anglaydi. Shu orqali yozuvchi inson ruhiyatidagi eng nozik va og'riqli nuqtani ochib beradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Mahmud Tarobiy romanida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Muallif tarixiy voqealarni haqqoniy aks ettirish bilan birga, ularni badiiy jihatdan boyitishga erishgan. Romanda tarixiy haqiqat asos vazifasini bajaradi, badiiy to‘qima esa shu asosni boyitadi. Natijada asar nafaqat tarixiy ma’lumot beradi, balki o‘quvchiga kuchli hissiy ta’sir ko‘rsatadi. Mahmud Tarobiy obrazi jonli, ishonarli va esda qolarli qilib yaratiladi. Tarixiylik va badiiylikni birlashtirgan, qahramon obrazini chuqur ochib bergan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Normatov, U. Ijodkorning daxlsiz dunyosi (adabiy suhbatlar). - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2008. - 77b.
2. Alauddin Ata-Malik Juvayni, Tarixi jahongushoy.
3. Dilmurod A. Mahmud Torobiy: Tarixiy roman. - Toshkent: "Sharq", 1998. - B.120.
4. Murodov, G'. O‘zbek romanida hujjatlilik. - Toshkent: Fan, 1983. - B.30-35

